

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAMANDAROVA GULSARA ISMATILLOYEVNA**

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING XORIJIY  
TILDAN KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN  
PLATFORMALARNI QO'LLASH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

UO‘K: 821.111.09-31+821.512.133.09-31

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Samandarova Gulsara Ismatilloevna**

Integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy tildan ko‘nikmalarini  
rivojlantirishda onlayn platformalarni qo‘llash metodikasi.....3

**Самандарова Гулсара Исмаиллоевна**

Методика использования онлайн-платформ для повышения уровня владения  
иностранными языками у студентов на основе интегративного подхода .....29

**Samandarova Gulsara Ismatilloevna**

The methodology for using online platforms to improve students' foreign language  
skills based on an integrative approach .....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....62

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAMANDAROVA GULSARA ISMATILLOYEVNA**

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING XORIJIY  
TILDAN KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN  
PLATFORMALARNI QO'LLASH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped11503 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashining veb-sahifasida va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Botirova Shaxlo Isamiddinovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Hikmatova Muqaddas Nurullayevna**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Fozilova Maxina Adashevna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_2\_”\_iyun\_ soat\_9:00\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/905 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_19\_”\_may\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil 19- may kunidagi \_19\_ raqamli reyestr bayonnomasi)



**N.B. Ataboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Y.B. Ro‘ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sh.Sh. Olimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda hozirgi globallashuv sharoiti, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida ham o'qituvchidan, ham talabdan xorijiy tillardan birini yoki bir nechtasini mukammal egallashni taqozo etadi. Jahon ta'lim amaliyotida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy til bo'yicha kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, onlayn ta'lim platformalari til o'rgatishda interfaol muhit yaratish, multimedia vositalari yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirish hamda individual yondashuvni ta'minlash imkonini bermoqda. Zotan, xorijiy tillarni o'qitishda onlayn platformalardan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirish masalasi hozirda nafaqat milliy, balki jahon ta'lim tizimi uchun ham dolzarb. Integrativ yondashuvga asoslanuvchi bu jihat xalqaro tajriba almashinuvi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Dunyoda bugungi globallashuv jarayonida xalqaro mehnat bozori va akademik hamkorlik talabalardan xorijiy til ko'nikmalari, jumladan, tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq malakalarini puxta egallashni talab etmoqda. Bu borada onlayn platformalardan o'rinli va unumli foydalanish xorijiy til ta'limining sifatini, ta'lim jarayonining moslashuvchan va interaktivlik imkonini oshiradi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar, xususan, onlayn ta'lim platformalari talabalarning mustaqil o'rganish faoliyatini faollashtiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi hamda til o'rganishda individual yondashuvni ta'minlaydi. Zero, ushbu jarayonning samaradorligini oshirish uchun metodik yondashuvlarni chuqur o'rganish va ilmiy asoslash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Demak, talabalarning xorijiy til bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishda onlayn platformalardan foydalanishning ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egaki, bu zamonaviy ta'limning muhim jihatini tashkil etadi.

Mamlakatimizning ta'lim tizimida xorijiy tillarni chuqur o'rganish davlat miqyosidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, Prezident qarorlari va konseptual dasturlarda chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyani jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo"<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan yondashilganda ta'lim tizimida onlayn ta'lim platformalaridan samarali foydalanish xorijiy til bo'yicha tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur platformalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, interaktivlikni ta'minlash, talabalarda mustaqil ishlash malakasini shakllantirish hamda ularning bilim va ko'nikmalarini xalqaro standartlar doirasida baholash imkonini beradi. Demak, talabalarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari" bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishdagi nutqi. 20-yanvar 2023-yil. <https://daryo.uz/>

platformalardan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etish, bu borada izchil metodlarni ishlab chiqish, borini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaliy ijrosida mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Talabalarning xorijiy tilni to‘laonli egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo‘llash metodikasiga oid quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

O‘zbekistonlik olimlardan N.F.Mamatqulova, X.A.Mamatqulov, B.G.Qulmatov, M.K.Fayziyeva, S.T.Shermatov, F.Sattorova, T.E.Ergashev kabi olimlar <sup>2</sup> tomonidan talabalarining xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish, pedagoglarda xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta‘minotini takomillashtirish, ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish, axborot ta’lim muhitida xorijiy tillarni o‘rganishning ijtimoiy zarurati, talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish mazmuni, lingvistik kompetensiyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishdagi ahamiyati, axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish kabi muammolar o‘rganilgan.

---

<sup>2</sup> Mamatqulova N.F. Tilga ixtisoslashtirilgan OTM talabalarining xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish (ingliz tili): Pedagog. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.– Toshkent, 2022.–174b.; Mamatqulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta‘minotini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘y.falsafa dokt...diss. – Toshkent: O‘zDJTU, 2017. – 143 b.; Qulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘y.falsafa dokt...diss. avtoref.– Toshkent, 2017. –47 b.; Fayziyeva M.K. Axborot ta’lim muhitida xorijiy tillarni o‘rganishning ijtimoiy zarurati// Journal of universal science research. – 2025. – T. 3. – №. 4. – P. 433-436.; Shermatov S.T. Etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish mazmuni (ingliz tili misolida): Ped.fan. bo‘yicha falsafa dokt. diss... – Toshkent: 2020. –172 b.; Sattorova F. Lingvistik kompetensiyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishdagi ahamiyati //Uzbekistan: Language and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 2.; Ergashev T.E. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarni innovatsion tafakkurini shakllantirish xususiyatlari: Falsafa fan. bo‘y... falsafa dokt... diss. –Toshkent, 2021. –150 b.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlaridan A.A.Yevtyugina, D.M.Golikov, G.X.Gimaldinova, D.K.Grabets, M.A.Yurchenko, Ch.Chun, O.Y.Yatsenko kabi olimlar<sup>3</sup> tomonidan xorijiy til ta'limida onlayn platformalardan foydalanish, ta'lim va fan sohasida yangi axborot texnologiyalari, onlayn ta'lim sharoitida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish, ingliz tili leksikasini kinodiskurs tahlili orqali zoom onlayn platformasida o'qitish, xorijiy til mashg'ulotlari doirasida xalqaro talabalar madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda mobil texnologiyalarning o'rni, xorijiy tillarni multimedia asosida o'qitish va talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga oid muammolar yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan F.G.Fandino, L.H. Mosquera, M.Manegre, K.A.Sabiri, H.N. Parentsa, J.K.Quinlan, D.A. Salsabila kabi olimlar<sup>4</sup> xorijiy til sifatida ingliz tilini elektron ta'lim orqali o'rganish, ingliz tili sinfida virtual ta'lim muhitini yaratishning ta'siri, virtual sinflardan foydalanib onlayn til o'rganish, ingliz tilini o'rganayotgan talabalar uchun "google classroom"dan onlayn ta'lim platformasi sifatida foydalanish, onlayn nutq laboratoriyalari orqali til o'rganishni tadqiq etish, ingliz tilini o'rganishda "youtube"dan vosita sifatida foydalanish bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etishgan.

Yuqorida nomlari sanab o'tilgan olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari, bugungi tezkor raqamli taraqqiyot sharoitida yoshlar orasida axborot oqimlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantirish, internet makonida xavfsiz va ongli ishtirok etishni ta'minlash muhim vazifalardan ekanligi va ularni amalga oshirish zarurati haqida mulohaza yuritilgan. Zotan, xorijiy til ta'limi tadrisida talabalarining xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish bo'yicha chuqur tahlillarga ega ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati seziladi. Demak, ta'lim tizimida onlayn platformalardan, onlayn texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga

---

<sup>3</sup> Евтюгина А.А., Голиков Д.М. Использование онлайн-платформ в языковом образовании //Новые информационные технологии в образовании и науке, 2024. – №14. – С. 59-70.; Гимальдинова С.Х. Формирование межкультурной компетенции в условиях онлайн-обучения: Магистерская диссертация. – Москва, 2025.; Грабец Д.К. и др. Обучение лексике английского языка на онлайн-платформе zoom посредством анализа кинодискурса: Магистерская диссертация. Москва, 2022.; Юрченко М. А. Мобильные технологии в развитии межкультурной компетенции студентов-международников в рамках занятий по иностранному языку //Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Гуманитарные и общественные науки, 2022. – Т. 6. – №. 3 (23). – С. 198-205.; Чун Ч., Яценко О.Ю. Мультимедийное обучение иностранным языкам и развитие межкультурной коммуникативной компетенции у студентов// Научный лидер, 2024. –№. 3.– С. 64.

<sup>4</sup>Fandino F.G.E., Muñoz L.D., Velandia A.J.S. Motivation and E-Learning English as a foreign language: A qualitative study //Heliyon. – 2019. – Т. 5. – №. 9.; Herrera Mosquera L. Impact of implementing a virtual learning environment (VLE) in the EFL classroom //Íkala, revista de lenguaje y cultura. – 2017. – Т. 22. – №. 3. – P. 479-498.; Manegre M., Sabiri K.A. Online language learning using virtual classrooms: An analysis of teacher perceptions //Computer Assisted Language Learning. – 2022. – Т. 35. – №. 5-6. – P. 973-988.; Nanda Parentsa H. The use of google classroom as an online learning platform for english as a foreign language (efl) students. – Pekanbaru, 2022. – 109 p.; Quinlan J. K. Exploring Language Learning Through the Lens of Online Speaking Labs. – Brigham Young University, 2019.; Salsabila D.A., Salam U., Rezeki Y.S. YouTube as a Tool for English Language Learning: A Meta-Analysis in EFL Contexts //English Education: Journal of English Teaching and Research. – 2025. – Т. 10. – №. 1. –P. 12-29.

aylandiki, bu tadqiq manbayi sifatida tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Buxoro davlat universitetining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy tildan ko'nikmalarini oshirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy tildan ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

integrativ yondashuvning nazariy asoslari tahlillarini umumlashtirish hamda uning xorijiy tilni o'qitishda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

xorijiy til ta'limi kontekstida onlayn platformalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi didaktik hamda metodik xususiyatlarini o'rganish;

talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalari(tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish)ni rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish;

xorijiy tilni o'qitishda integrativ yondashuv asosida takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali asoslash hamda onlayn platformalardan unumli foydalanishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasi jarayoni tanlandi. (Tajriba-sinov ishlariga Urganch davlat universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti hamda Alfraganus universitetining jami 369 respondent-talabalari jalb etildi.)

**Tadqiqotning predmetini** xorijiy tilini o'qitish jarayonida integrativ yondashuv orqali talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun onlayn platformalarni qo'llashning metodik mazmuni, vositalari, shakli va strategiyalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ushbu tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, prognostik (umumlashtirish, baholash), kuzatish, sotsiometrik (anketa, test), shuningdek, monitoring, pedagogik tashxis, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan interaktiv va adaptiv texnologiyalar, onlayn interfaol o'quv platformalari, raqamli darsliklar, multimedia resurslari, o'quv ilovalari tizimli tahlil qilinib, yangi didaktik shart-sharoitlar aniqlangan hamda onlayn texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va metodik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

talabalarning xorijiy til bo'yicha kommunikativ kompetensiyasini oshirishga qaratilgan integrativ (*integrative*) va interfaol ta'lim (*interactive learning*) yondashuvlari asosidagi metodik mexanizmlar takomillashtirilib, mazkur mexanizmlar asosida ingliz tilida tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilgan;

xorijiy tilni o'qitishda integrativ yondashuv va zamonaviy onlayn platformalarni o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan metodik model takomillashtirilib, uning o'qitish samaradorligiga ta'siri hamda an'anaviy yondashuvlardan ustun tomoni nazariy jihatdan dallillandi;

xorijiy til ta'limida qo'llaniladigan o'qitishning zamonaviy usullari va ularning didaktik imkoniyatlarini oshirish yo'llari tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlandi va shu asosda talabalarning ingliz tilini o'zlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xorijiy til ta'limi jarayonida onlayn axborot texnologiyalari sharoitida talabalarning kognitiv, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari, texnologiyalari, metodikalari va mexanizmlari mavzu doirasida takomillashtirilgan;

integrativ yondashuv doirasida talabalarning xorijiy til bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda onlayn platformalardan foydalanish metodikasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, interfaol metodlar asosida kommunikativ va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yaratilgan rivojlantirish modeli zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash hamda modifikatsiyalash asosida optimallashtirilgan;

zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi autentik materiallar vositasida kontekstga moslashtirilgan metodikalari integratsiyasi asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va shu asosda tashkiliy-metodik ta'minot yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuyidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalarida statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmunining ilmiy-amaliy mohiyatiga ko'ra xarakterlanadi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, zamonaviy va integrativ yondashuvlar asosida talabalarning xorijiy tilni samarali o'rganish ko'nikmalarini oshirish, kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** xorijiy til ta'limi jarayonida talabalarning xorijiy til bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda onlayn platformalardan foydalanish metodikasida interfaol yondashuvlarni integratsiyalashtirish masalalarining mualliflik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganligi, talabalarning tanqidiy fikrlash,

kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik, didaktik imkoniyatlari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlarining aniqlanganligi, zamonaviy ta'lim jarayonida kasbiy rivojlanish mexanizmlarining takomillashtirilganligi, mavzu doirasida metodik yondashuvlar mohiyatining ochib berilganligi, virtual ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikni ta'minlash, kasbiy, kognitiv, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy - metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida talabalarning xorijiy til bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda onlayn platformalardan foydalanish metodikasining mazmun-mohiyatini takomillashtirishga xizmat qilishi, tadqiqot natijasida aniqlangan tamoyillar, mezonlar, texnologiyalar, ishlab chiqilgan metodik ta'minot, pedagogik jarayon uchun texnologik model va mashg'ulotlar to'plami ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida talabalarning *kommunikativ kompetensiyalarini* oshirish, onlayn texnologiyalardan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirish, qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslarida hamda kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarning xorijiy til bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda onlayn platformalardan foydalanish metodikasi va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, talabalarning xorijiy tilni samarali o'rganish kommunikativ kompetensiyalarini integrativ yondashuvlar orqali takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan interaktiv va adaptiv texnologiyalar, onlayn interfaol o'quv platformalari, raqamli darsliklar, multimedia resurslari, o'quv ilovalari tizimli tahlil qilinib, yangi didaktik shart-sharoitlar aniqlangan hamda onlayn texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va metodik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan xulosalardan "*English for ESP students (of agricultural universities)*" nomli o'quv qo'llanmada foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2025-yil 8-apreldagi 1-9-6/68-son buyrug'iga asosan berilgan 68/13-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minotini onlayn texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va metodik ahamiyatini anglatish asosida takomillashtirishga erishilgan;

talabalarning xorijiy til bo'yicha kommunikativ kompetensiyasini oshirishga qaratilgan integrativ (*integrative*) va interfaol ta'lim (*interactive learning*) yondashuvlari asosidagi metodik mexanizmlar takomillashtirilib, mazkur mexanizmlar asosida ingliz tilida tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish imkoniyatlariga oid xulosalar "*Practical English for students of animal engineering*" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2024-yil 5-apreldagi 1-9-6/123-son buyrug'iga asosan berilgan 123-43-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada o'quv qo'llanmaning ingliz tilida tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish bo'limi mazmunan boyitilgan;

xorijiy tilni o'qitishda integrativ yondashuv va zamonaviy onlayn platformalarni o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan metodik model takomillashtirilib, uning o'qitish samaradorligiga ta'siri hamda an'anaviy yondashuvlardan ustun tomoni nazariy jihatdan asoslan xulosa va takliflardan "*Wide outlook into the world of food technology and industry*" nomli o'quv qo'llanmada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'iga asosan berilgan 500-593-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada o'quv qo'llanmada ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik bo'limi takomillashtirilgan;

xorijiy tilni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning zamonaviy usullari va ularning didaktik imkoniyatlarini oshirish yo'llari tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan natijalar va shu asosda talabalarning ingliz tilini o'zlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan "*English talk: your first step in animal engineering and veterinary medicine*" nomli darslik materiallarini yoritishda foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2026-yil 20-yanvardagi 1-9-6/15-son buyrug'iga asosan berilgan 15-04-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada mazkur darslikning xorijiy tilni o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yangi didaktik shart-sharoitlari, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash usullari bilan bog'liq bo'limlari nazariy qarashlar bilan boyitilgan hamda darslikning amaliy tatbiqi amalga oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 1ta xalqaro va 1 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik (yakka mualliflikda), 3 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Talabalar xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning nazariy-metodik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xorijiy til ta'limida integrativ yondashuv tushunchasi va mazmuni, ingliz tilini o'qitish muhitida onlayn texnologiyalardan foydalanishda asosiy yondashuvlar, talabalarda xorijiy tilning ko'nikmalari(tinglash, o'qish,

yoʻzish, gapirish)ni shakllantirish jarayonining lingvistik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Hozirgi davrda taʼlim integratsiyasi muammosi pedagogika, didaktika va metodika fanlarida kesimida keng tadqiq qilinayotgan ilmiy-amaliy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ishlab chiqilayotgan integrativ-pedagogik konsepsiyalar turli taʼlim sohalaridagi integrativ-pedagogik faoliyatning yoʻnalishi va mazmunini belgilab beruvchi tizimli qarashlar, nazariy qoidalar va gʻoyalarning majmuyidan iborat. Oliy taʼlim tizimida chet tilini oʻqitish jarayonida qoʻllanilayotgan integrativ yondashuvning kompleks xarakteri quyidagi tizimli unsurlar orqali aniqlanadi:

*Integrativ faoliyat obykti* – “yangi chet tili mazmunini egallayotgan va uni kelajakdagi kasbiy faoliyatida qoʻllashga tayyorlanayotgan talaba hisoblanadi. Bunda asosiy maqsad – integrativ bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishdir. Shu tariqa integrativ taʼlim sharoitida yuqori malakali, yangi kasbiy integrativ sifatlarga ega boʻlgan mutaxassis tarbiyalanadi”<sup>5</sup>.

Taʼlim jarayonida integrativ yondashuvni, yaʼni talabalarning kasbiy kompetentligini xorijiy til vositasida shakllantirishga qaratilgan jarayonni amalga oshirishdan avval quyidagilarni belgilash lozim:

- a) integratsiyaga jalb qilinadigan taʼlim tizimi komponentlarini ajratib olish;
- b) integratsiya shartlarini aniqlash;
- c) integratsiyaning usullari, darajalari va chuqurligini belgilash.

Xorijiy til vositasida kasbiy kompetentligini shakllantirishning konseptual asoslarini aniqlashda metodologik integratsiyani, yaʼni butun taʼlim faoliyati siyosatini belgilovchi metodologik yondashuvlarning sintezini oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Metodologik integratsiya haqida soʻz borganda, boshlangʻich nuqta sifatida ilgari mavjud boʻlmagan yangi sifat va miqdoriy sintezga asoslangan oʻziga xos taʼlimiy tizim qabul qilinadi. Ushbu vazifani amalga oshirish quyidagi shartlar bajarilishini taqozo etadi:

integratsiyaga kiritiladigan yondashuvlar nazariya va amaliyotda zamonaviy gumanistik yoʻnalishlarni aks ettirishi kerak;

integratsiya doirasidagi yondashuvlar orasida oʻzaro uygʻunlik boʻlishi muhim;

integratsiya doirasiga har bir yondashuvni qoʻshishda masalaning maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan muayyan asosga tayanilishi zarur;

integratsiya qilinadigan yondashuvlar soni taʼlim vazifalarining oʻziga xosligi bilan belgilanishi kerak;

integratsiya doirasiga kiritilgan yondashuvlarning ilmiy-metodik apparati va ularni amalga oshirish prinsiplari metodologik, nazariy hamda amaliy darajalarda bir-birini toʻldirishi, muammoni yaxlit koʻrib chiqishni taʼminlashi ahamiyatli.

Demak, integrativ yondashuv metodologiyasining mohiyatini oʻzaro bir-birini toʻldiruvchi ilmiy yondashuvlarning murakkab majmuyi tashkil etadiki, bunda ularning sintezi chet tillarini oʻqitish jarayonini yaxlit, koʻpqirrali va koʻpaspektli tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, har bir yondashuv integrativ tizimda oʻziga xos metodologik yuklamaga ega boʻlib, maʼlum strategik

---

<sup>5</sup>Крючков В.А. Интеграция содержания учебного процесса как способ совершенствования коммуникативной компетентности учителя-практика (в рамках непрерывного образования учителя): Дисс. ... канд. пед. наук.– Рязань, 2003. – 290 с.

vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan. Viktor Gyugo ta'biri bilan aytganda: "O'z vaqtida shakllangan g'oyadan kuchli narsa yo'q." Bugungi kunda texnologiya, ayniqsa, kompyuter texnologiyasi jamiyatning barcha jabhalariga kirib borganligi sir emaski, u XXI asr ta'limining qiyofasini ham tubdan yangiladi va bu jarayon jadal davom etmoqda. Ta'kidlash joizki, texnologik o'zgarishlarning o'qitish va o'rganish jarayonlariga ta'siri yoki ta'limda tubdan inqilob yasayotgani xususidagi fikrlar pedagoglar orasida hamon bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ingliz tili ta'limi sohasida Barton ikki asosiy yo'nalishni qayd etgan: "yozuvni o'qitishda kompyuterlardan foydalanish va savodxonlik tushunchasi, shuningdek, sohaga oid ta'riflar, tushunchalar ta'limiga texnologiyani qo'shish"<sup>6</sup>. Ingliz tilini alohida fan sohasi sifatida aniqlash kutilganidan ko'ra murakkabroq. J.Moffet ingliz tilini faqat turli mazmunlar yoki ko'nikmalar majmuyi sifatida emas, balki "ona tilimizdagi barcha diskurslar –hodisalarning har qanday og'zaki ifodasi, u fikriy, og'zaki yoki yozma bo'lsin, adabiy yoki noadabiy bo'lsin" tarzida kengroq talqin etish g'oyasini ilgari surgan. Ingliz tilini tor doiradagi, qat'iy belgilangan fan sifatida emas, balki kengqamrovli mazmunga ega bo'lgan soha sifatida ko'rish"<sup>7</sup>ga qaratilgan ushbu yondashuv bugungi kunga qadar dolzarbligini yo'qotmagan.

P.Elbov "Ingliz tili nima?" (*"What Is English?"*) asarida o'zi va boshqa mutaxassislarning tajribalari hamda 1987-yilda ingliz tili va uning ta'limi xususiyatlariga bag'ishlangan ("English Coalition Conference") anjuman natijalarini tahlil qiladi. Mazkur konferensiya 1966-yilda bo'lib o'tgan tarixiy "dartmurt anjumani" ("Dartmouth Conference")ning 20 yildan keyingi davomi sifatida tashkil etilib, uning asosiy maqsadi turli ta'lim bosqichlarida ingliz tilini o'qitishga oid umumiy kelishuvga erishishdan iborat edi<sup>8</sup>. Bu borada Moffet qarashlariga hamohang tarzda Elbov shunday yozadi: "Ingliz tili o'ziga xos darajada boy, murakkab va ko'pqirrali. Fikrimizcha, uning imkoniyatlari boshqa ko'plab fan sohalaridan ham kengroq. Bizning ingliz tilimiz go'yoki sermahsul asar yoki aralash to'plamga o'xshaydi"<sup>9</sup>.

Ingliz tili va adabiyoti ta'limida "kontekst" tushunchasi doimo muhim o'rin tutgan va qator tadqiqotlarda mazkur metodik jihatga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, yozuv darslarida o'qituvchilar o'quvchilarning ishlarini kontekstualizatsiya qilishlariga yordam berish maqsadida ularni haqiqiy muammolar, vaziyatlar va auditoriyalar bilan bog'lashga intilishadi"<sup>10</sup>. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham grammatika, til va adabiyot bo'yicha munozaralar kontekstning zarurligini ko'rsatib kelmoqda. Muayyan texnologiyadan foydalanishda ham matn ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tili va adabiyotini o'qitishda texnologiyadan samarali foydalanish uchun tanqidiy tafakkurni rivojlantirish zarur.

Zotan, Kajder ta'kidlaganidek, "Diqqat texnologiyadan bilim olishda emas,

---

<sup>6</sup> Barton E. Computers and literacy: Access and equity. Support for the Learning and Teaching of English (SLATE) Starter Sheet. – Urbana, IL: National Council of Teachers of English, 1993.

<sup>7</sup> Moffett J. Teaching the universe of discourse. – Portsmouth, NH: Boynton Cook, 1983.

<sup>8</sup> Elbow P. What is English? –New York: MLA and National Council of Teachers of English, 1990.– P.5.

<sup>9</sup> Moffett J. Teaching the universe of discourse. – Portsmouth, NH: Boynton Cook, 1983.– P.110.

<sup>10</sup> Kirby D., Kirby D.L., Liner T. Inside out: Strategies for teaching writing (3rd ed.). – Portsmouth, NH: Heinemann, 2004.

balki texnologiya yordamida bilim olish jarayoniga e'tibor qaratilishi kerak"<sup>11</sup>. Willis, Stephens va Mathev mulohazalarida *"ta'lim modellarini va nazariyalarini birinchi o'ringa, texnologiyani esa, ikkinchi planga qo'yish"*<sup>12</sup> masalasi ilgari surilgan. Matsiz texnologiyani dars jarayonida qo'shish uning samarasiz yoki noo'rin ishlatilishiga olib kelishi, natijada esa, yangi ta'limiy tajribalar imkoniyatlari va katta mablag'lar behuda sarf bo'lishi mumkin.

Demak, oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda onlayn texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish va talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, onlayn texnologiyalarni qo'llash uchta asosiy yo'nalishda samarali bo'lishi mumkin: 1) talabalarning individual o'quv ehtiyojlarini qondirish va o'zlashtirish tezligini ta'lim jarayoniga moslashtirish; 2) interaktiv muhit orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish va talabalar o'rtasida o'zaro muloqotni faollashtirish; 3) multimedaviy vositalar yordamida motivatsiyani oshirish va ijodiy fikrlashni qo'llab quvvatlash.

Shuningdek, bu o'rinda o'qituvchilarning onlayn texnologiyadan foydalanishdagi pedagogik mahorati va tanqidiy yondashuvi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoniga onlayn platformalarni samarali integratsiya qilish uchun metodik yondashuv, didaktik moslashtirish va texnologik vositalar maqsadga muvofiq tanlanishi zarur. Shundagina ingliz tili ta'limida onlayn texnologiyalar o'quv jarayonini faollashtirish, o'qituvchilarning mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda global ta'lim maydonida raqobatbardosh shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili real ijtimoiy muloqot hamda raqamli kommunikatsiya vositasi sifatida, jumladan, ingliz tiliga asoslangan internet makonida, universal aloqa vositasi sifatida qaralmoqda. Zero, gapirish ko'nikmasi boshqa ko'nikmalar bilan birgalikda rivojlantirilishi zarurki, bunda umumiy kommunikativ kompetensiyani kuchaytirishga erishiladi. Xorijiy tilni o'rganish, ona tilini egallash jarayoniga o'xshash holatdagi tabiiy va muqarrar jarayondir.

Ijtimoiy turmush tarzimizda muloqot ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyoj ingliz tili o'qitish dasturlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching – CLT) yondashuvining nazariy asoslari va amaliy tatbiqi EFL (English as a Foreign Language) ingliz tili ta'limida alohida ahamiyat kasb etadi. CLT yondashuvi yangi pedagogik metod sifatida ham, metoddan keyingi bosqichda qo'llaniladigan yondashuv sifatida ham ingliz tili o'qitish maqsadlariga erishishda, shuningdek, talabalar hamda o'qituvchilarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qila olishi soha mutaxassisleri tomonidan e'tirof etiladi.

H.Darvish ta'kidlashicha, "Kommunikativ til modeli barcha o'qitish metodlarini o'z ichiga oluvchi "yirik soyabon" bo'lib, ularning barchasi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Buni turli pedagogik yondashuvlar amaliyotda qo'llanishi ham tasdiqlaydi: masalan,

---

<sup>11</sup> Kajder S. B. The tech-savvy English classroom. – Portland, ME: Stenhouse, 2003.– P.9.

<sup>12</sup> Willis J.W., Stephens E. C., Matthew K.I. Technology, reading, and language arts. – Boston: Allyn and Bacon, 1996.

topshiriqqa asoslangan yondashuv (Task-Based Approach), insonparvarlikka asoslangan yondashuv (Humanistic Approach), hatto “Jismoniy javob metodi” (Total Physical Response) ham aslida kommunikativ tamoyillarga tayanadi”<sup>13</sup>.

Xorijiy tilni o‘qitish va o‘rganishda to‘rtta asosiy nutq malakasi mavjudligi ma’lum: tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish. Ular til o‘qitishning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Til o‘qitishda mazkur malakalar ikki guruhga bo‘linadi: tushunish va o‘qish qobiliyati hamda og‘zaki nutq va yozma nutq qobiliyati. Manbalarda xorijiy til ta’limining boshqa muhim omillari sifatida grammatika va lug‘at boyligi alohida ta’kidlanadi<sup>14</sup>. Xorijiy til kurslarida samarali va muvaffaqiyatli ta’lim jarayonini tashkil etish uchun ushbu to‘rtta asosiy nutq malakasi o‘quvchilarning darajasi hamda ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirilib, mustahkamlanishi zarur.

Kommunikativ til o‘qitish metodlari auditoriyadagilar ishtiroki xususiyatlarini hisobga oladi. Bu yondashuv o‘quvchilar ishtirokini ularning muloqot faoliyati orqali ifodalash imkonini beradi. CLT metodikasi chet tilini o‘qitishda o‘quvchilarni maqsadli tilni o‘zlashtirishga undaydi va bunda o‘quvchi o‘zining til o‘rganish sa’y-harakatlariga tayanadi. CLT nazariyasi o‘ziga xos model va paradigmalarga, shuningdek, til o‘rganish nazariyalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosi shundaki, tilning qo‘llanishi muloqot faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Integratsiya jarayoni turli soha va fanlarga xos bo‘lgan umumiy hodisadir. Masalan, tizimlar nazariyasida integratsiya – tizim komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unlashgan holatini anglatadi. Biologiya fanida integratsiya tirik tizimga xos bo‘lgan funksiyalar va tuzilmalarning tartibliligi, izchilligi hamda bir butunlikda ishlashini bildiradi. Jahon xo‘jaligida esa, integratsiya ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan ta’minlanib, iqtisodiy hayotning obyektiv xalqaro xarakter kasb etishi va davlatlar manfaatlarining o‘zaro chirmashib borishi sifatida izohlanadi. Fiziologiya fanida integratsiya alohida fiziologik, biologik va biokimyoviy jarayonlar butun organizmning uyg‘un faoliyatini ta’minlashini anglatadi. Tilshunoslikda esa integratsiya til tizimining alohida bo‘laklari (subtizimi)ning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta’sirini ifodalaydi.

Demak, integrativ yondashuv talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, shu jumladan raqamli ta’lim muhitida qo‘llaniladigan o‘qitish usullaridan samarali foydalanishga tayanadi. Xorijiy til o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llash esa, o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir, o‘zaro singish va bir-birini to‘ldirish tamoyillari tilni egallash jarayonida muhim o‘rin tutishini anglatadi. Zamonaviy ta’lim makonida integrativ yondashuvni amalga oshirishning an’anaviy jihatlari esa, avvalo, elektron ta’lim muhitining xorijiy til o‘qitish jarayoniga integratsiyasi nuqtayi nazaridan baholanadi. Ingliz tilini o‘qitish muhitida onlayn texnologiyalardan foydalanishdagi asosiy yondashuvlar o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Masofaviy ta’lim platformalari, multimediya resurslari, interaktiv dasturlar va sun’iy intellekt

---

<sup>13</sup> Darwish H. We Couldn’t Communicate in English, Could we? ; the Communicative Approach Practices, A Critical View. International Journal of Languages’. –Education and Teaching, 2016.– Vol. 4, No. 2. – P.183-192.

<sup>14</sup> Balcı T. Die Erweiterung des Wortschatzes: Eine Analyse am Beispiel Türkisch-Deutsch/Festschrift für Prof. Dr. Yılmaz Özbek zum 67. Geburtstag, Sarı, A., Ed., Çizgi. – Konya, 2015. – P. 73-82.

asosidagi qo‘llanmalar hamda amaliy faoliyat talabalarning mustaqil ta‘lim olishini kuchaytiradi, ularni shaxsiylashtirilgan o‘qitishga yo‘naltiradi va kommunikativ faoliyatni rag‘batlantiradi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo‘llash metodikasi va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida integrativ yondashuv asosida xorijiy tildan ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va ta‘limiy resurslarning roli, onlayn platformalarning funksional imkoniyatlari hamda xorijiy til ko‘nikmalarini oshirishda uchraydigan didaktik va metodik muammolar, talabalarning xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvni onlayn ta‘lim vositalari bilan uyg‘unlashtirish tajribalari tahlil etilgan. Integrativ ko‘nikmalar asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishda talabalarga turli topshiriqlar taklif etildi. Hozirgi vaqtda kommunikativ yondashuvga asoslangan integrativ ta‘limning bir qator o‘quv dasturlari va model turlari mavjud bo‘lib, ular qatoriga mazmuniy (content-based), vazifa asosidagi (task-based), matnga asoslangan (genre-based), nutqiy (discourse-based), loyiha asosidagi (project-based), muammo asosidagi (problem-based), adabiyot asosidagi (literature-based), savodxonlikka yo‘naltirilgan (literacy-based), jamoadoshlikka asoslangan (community-based), kompetensiyaga yo‘naltirilgan (competency-based), standartlarga asoslangan (standards-based) yondashuvlar kiradi<sup>15</sup>.

Xorijiy til ta‘limida axborot texnologiyalaridan muntazam foydalanish turli dasturiy ta‘minot tizimlarini qo‘llashni talab etishi ma‘lumki, bunda mahalliy tadqiqotchilar masofaviy ta‘limning umumiy istiqbollari bilan birga uning metodik jihatlariga ham e‘tibor qaratishayotganliklari kuzatiladi. Integrativ ta‘limning bosh maqsadi talabalarda kelajak kasbiy faoliyatning yaxlit tasavvurini shakllantirish va maxsus fanlar bilan xorijiy tilning o‘zaro bog‘liqligini anglashiga ko‘maklashishdir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali ro‘yobga chiqariladi:

*Team teaching (hamkorlikda o‘qitish)* metodidan foydalanish – integrativlikka asoslangan mashg‘ulotlarni xorijiy til o‘qituvchisi va maxsus fan o‘qituvchisining hamkorligi asosida tashkil etilishi, o‘qitish qaror va strategiyalarining almashuvi, shuningdek, mashg‘ulotlarni ikki tilda (ona tili va xorijiy tilda) olib borish (bilingval ta‘lim).

Pedagogik texnologiya va metodlarni integratsiya qilish – intensiv xorijiy til o‘qitish texnologiyalari, muammoli o‘qitish, loyiha metodi, keys-stadi, rol o‘ynash, interaktiv taqdimotlar, musobaqalar, professional muammolarni hal etishga qaratilgan muhokamalar, *“Aqliy hujum”*, *“Davra suhbatlari”*, *biznes o‘yinlar*, *treninglar*, *individual*, *juftlik* va *guruh mashqlari*, *kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtirish* kabi metodlar uyg‘un qo‘llanadi”<sup>16</sup>.

Xullas, ingliz tili ta‘limida audio vositalardan foydalanish jarayonining evolyutsiyasi o‘quvchilarga keng va interaktiv tarzda autentik tinglab tushunish materiallarini taqdim etdi. Tinglash jarayoni til o‘rganishning asosiy

---

<sup>15</sup> Hinkel E. Current perspectives on teaching the four skills / Eli Hinkel // TESOL Quarterly, 2006. – № 40 (1). –P. 109-131.

<sup>16</sup> Sytnyakivska S.M. Theory and methodology of social specialists training on a bilingual basis in universities: monograph. – Zhytomyr, 2018. – P. 340.

bosqichlaridan biri sifatida qabul qilinganligi bois, audio texnologiyalarni joriy etish til ta'limida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Vaholanki, audio texnologiyalar o'qitishda kompyuterlar va proyektorlar orqali vizual materiallar bilan uyg'un holda interaktiv tarzda qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon talabalarga matnlarni tinglash orqali asl til egalari talaffuzini eshitish, o'qish va tinglashni o'zaro bog'lash imkonini beradi.

Til ta'limida keng qo'llaniladigan ikkinchi vosita bu vizual texnologiyalar hisoblanadi. Vizual media tarkibida eng ko'p ishlatiladigan vositalar – suratlar, slaydlar hamda videodisk yoki CD-ROM kadrlari hisoblanadi. XX asrning 60-yillaridan boshlab slayd proyektorlari va grafoproektorlar darslarda keng qo'llanilgan bo'lsa-da, bugungi kunning zamonaviy darslari jarayonida ulardan eskirgan texnologiya sifatida deyarli foydalanilmaydi. Endilikda slaydlar kompyuter dasturlari yordamida yaratiladi va bu o'qituvchilarga yuqori sifatli tasvirlardan foydalanish, ularni turli guruh talabalariga moslashtirish imkonini bermoqda

Ta'kidlash joizki, vizual texnologiyalarning keng qo'llanishi, asosan, kompyuterlar bilan bog'liq. 1960-yillardan buyon kompyuterlar xorijiy til ta'limida faol ishlatib kelinmoqda<sup>17</sup>. Bu jarayon natijasida Computer Assisted Language Learning (CALL) – “kompyuter yordamida til o'qitish” atamasi paydo bo'ldi. CALL konsepsiyasining 50 yillik tarixi uch bosqichga bo'linadi: behavioristik CALL, kommunikativ CALL va integrativ CALL<sup>18</sup>. Har bir bosqich ma'lum texnologik daraja bilan bir qatorda, o'ziga xos pedagogik yondashuvni ham aks ettiradi.

Hozirgi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ko'pincha, kompyuter yordamida til o'qitish (CALL) atamasiga muqobil tarzda ishlatiladi. Ushbu tushuncha kompyuter markaziy o'rin egallagan texnologiyalarni, ya'ni kompyuter yordamida til o'rganish jarayonlarini, internet resurslarini hamda turli xil kompyuter dasturlarini o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda bulutli xizmatlar, ijtimoiy tarmoqlar (*Twitter, Facebook*), veb-qidiruv topshiriqlari (*webquest*), onlayn o'yinlar, shuningdek, mobil qurilmalar (*planshet va smartfonlar*) xorijiy tilni o'qitishda keng qo'llanilayotgan eng yangi AKT vositalari sifatida ajralib turmoqda. Shuningdek, texnologiyaning til o'qitishga integratsiyalashuvi Gardnerning ko'pqirrali intellekt nazariyasi bilan hamohang bo'lib, o'qituvchiga talabalarning turli o'quv uslublariga moslash imkonini beradi. Bundan tashqari, til o'qitishda muhim o'rin tutuvchi “*mastery learning*” tamoyiliga mos ravishda, texnologiya yordamidagi ta'limda vazifaga asoslangan metodik strategiyalar keng qo'llanilmoqda. Yana bir jihati shundaki, texnologiya integratsiyasi til ta'limiga gumanistik yondashuvni olib kiradi. Chunki u talabalarga tanlov erkinligini beradi, o'z o'quv faoliyatlari uchun mas'uliyatni his qilishlariga yordam beradi va o'zini namoyon qilish imkoniyatini yaratadi.

Ingliz tilini o'rganishda eng ommalashgan bepul onlayn manbalardan biri sifatida veb-saytlar e'tirof etiladi. Ushbu turdagi manbalarning afzalliklari va

---

<sup>17</sup> Seferoğlu, G. Improving students' pronunciation through accent reduction software//British Journal of Educational Technology, 2005. – 36(2). P.303-316.

<sup>18</sup> Warschauer M. Technological change and the future of CALL. In S. Fotos & C. Browne (Eds.), New perspectives on CALL for second and foreign language classrooms. – Mahwah, NJ: Erlbaum, 2004.– P. 15-25.

cheklovlari quyida tahlil qilinadi.

**Lingualeo** platformasi (<https://lingualeo.com>) xorijiy til o'rganishda lug'at boyligini mustahkamlash va xotirada saqlash imkoniyatini yaratadi.

**Duolingo** (<https://www.duolingo.com>) ham lug'at o'rganish va mustahkamlashda samarali platforma hisoblanadi. Foydalanuvchi tizimga ro'yxatdan o'tib, kerakli til darajasini tanlaydi yoki mavjud bilim darajasini aniqlash uchun test topshiradi. Shundan so'ng mashqlar hajmi o'zlashtirish darajasiga moslashtiriladi.

**Cambridge Assessment English** (<https://www.cambridgeenglish.org/test-your-english/>) portali xorijiy til kompetensiyasini oshirish uchun foydali manbalarni taqdim etadi. Ushbu portal mutlaqo bepul bo'lib, testlar orqali foydalanuvchilarning til bilish darajasini aniq baholash imkonini beradi. Mazkur testlar TOEFL yoki IELTS sinovlariga o'xshash bo'lib, o'quvchining rivojlanish darajasini samarali kuzatishga yordam beradi.

**Learn at Home** (<https://www.learnathome.ru>) ingliz tilini mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan yana bir qulay platformadir. Unda lug'at, grammatika, yozish, gapirish va o'qish kabi tilning barcha jihatlari mashq qilinadi. Til testi yakunlanganidan so'ng shaxsiy o'quv rejasi shakllantiriladi. Bundan tashqari, Learn at Home platformasi o'zining **Learn@Home** podkastini ham taklif etadi (<https://apps.apple.com/ua/app/learn-home/id731118782>), bu esa, uni kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yanada mashhur manbaga aylantiradi.

**HiNative** (<https://hinative.com>) bepul xizmat ko'rsatadigan platforma bo'lib, ruscha interfeysga ham ega. Uning asosiy afzalligi shundaki, foydalanuvchiga ona tili egasi yordam beradi: talaffuzni to'g'rilaydi, savollarga javob beradi, so'z yoki iboralarning to'g'ri qo'llanish kontekstini tushuntirib beradi.

Bundan tashqari, **Birlashgan Millatlar Tashkilotining bibliografik va terminologik resurslari** ham (THESAURUS – <https://lib-thesaurus.un.org>, ko'p tilli hujjatlar bazasi – <https://conf-dts1.unog.ch>, UNTERM terminologik bazasi – <https://unterm.un.org>) xorijiy til bo'yicha kasbiy va tarjimonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu manbalar BMT hujjatlarini boshqa tillarga tarjima qilishda qo'llaniladigan ko'rsatmalar va namunaviy materiallar sifatida xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, xorijiy tilni o'rganishda keng qo'llaniladigan bepul onlayn resurslarning yana bir yirik guruhi mavjud bo'lib, ular **podkastlar** deb nomlanadi. Oddiy qilib aytganda, podkast – ma'lum bir dastur mazmunining doimiy efirga uzatilish shakli. Bu jarayon, ko'pincha, **YouTube kanallari orqali olib boriladigan uzatish** bilan ifodalanadi. Har bir foydalanuvchi ushbu resurslarga bepul obuna bo'lish imkoniyatiga ega. Masalan, ilgari eslatib o'tilgan **Learn@Home** podkasti (<https://apps.apple.com/ua/app/learn-home/id731118782>) til o'rganish jarayonida samarali qo'llanilmoqda. Shuningdek, **Skyeng** podkasti (<https://www.youtube.com/channel/UCCbBiCpR-eBwL5l6H63lgfg>) ingliz tili maktabi sifatida faoliyat yurituvchi rusiyzabon resurs bo'lib, u tinglovchilar bilan bevosita onlayn ishlash imkonini beradi.

Yana bir mashhur resurs — **TED Talks** podkasti (<https://www.youtube.com/user/TEDtalksDirector>) bo'lib, u turli mavzulardagi ommaviy nutqlar to'plamidan

iborat.

**EnglishClass101.com**(<https://www.youtube.com/user/ENGLISHCLASS101>) podkasti ingliz tilini o'rgatishda klassik yondashuv asosida materiallarni tushuntirish va o'zlashtirish imkonini beruvchi samarali manba hisoblanadi. Ushbu resursning eng muhim afzalligi shundaki, tinglovchilar ingliz tilida so'zlashuvchi ona til egalari nutqini bevosita tinglash imkoniga ega bo'ladilar.

**Mobil ilovalar** xorijiy tilni o'rganishda keng qo'llanilayotgan bepul onlayn vositalardan biridir. Smartfonlardan foydalanish shaxsiy kompyuterlardan ko'ra kengroq tarqalganligi sababli, mobil ilovalar yordamida talaba har doim yangi bilimlarni egallash yoki avval o'zlashtirilgan materialni takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Offline Ukrainian-English Dictionary** (<https://apps.apple.com/us/app/english-ukrainian-dictionary/id1088834323>) foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega bo'lib, internet ulanishi mavjud bo'lmagan sharoitlarda ham lug'atdan foydalanish imkonini beradi.

**Google Translate** (<https://apps.apple.com/us/app/google-translate/id414706506>) mobil ilovasi internet ulanishini talab qiladi, biroq katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Ushbu ilova barcha tillar o'rtasida so'z va iboralarni tarjima qilishga yordam beradi. Qulay interfeysga ega bo'lgan bu xizmat butunlay bepul taqdim etiladi.

**Hello English** (<https://apps.apple.com/us/app/hello-english/id1148009516>) ta'limiy platformaga asoslangan bo'lib, asosiy platformada pullik obuna talab etilsa-da, mobil ilova mutlaqo bepuldir (qo'shimcha funksiyalar uchun in-app xarid mavjud). Bepul versiyada 400dan ortiq interaktiv mashqlar taqdim etilib, grammatika va eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.


**Beelinguapp: Language Learning** (<https://apps.apple.com/app/beelinguapp-learn-languages-with-audio-books/id1225056371>) mobil ilovasi foydalanuvchilarga audiokitoblar orqali ingliz tilini o'rganish imkonini beradi. Ona tilda so'zlashuvchi diktorlar tomonidan o'qilgan audiokitoblar tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi, lug'at boyligini kengaytiradi hamda o'qish ko'nikmalarini takomillashtiradi.

**English Word Card** (<https://apps.apple.com/ru/app/english-word-card/id759821899>) lug'at boyligini oshirishga qaratilgan bo'lib, foydalanuvchilarga mavzular va murakkablik darajalari bo'yicha tartiblangan flashkartalar yordamida o'rganish imkonini beradi. Ushbu uslub boshlang'ichdan tortib ilg'or darajagacha bo'lgan barcha o'rganuvchilar uchun mos keladi. So'zlar kontekstda, batafsil izoh va talaffuz audiosi bilan birgalikda taqdim etiladi"<sup>19</sup>.

Shuningdek, mavzu doirasida ushbu tadqiqotimizda taklif etilayotgan modelning funktsional aspekti model tarkibining to'rt blokining har biri muayyan funktsiyalarni bajarishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, tarkibiy-tuzilmaviy aspekt modelning komponentli tarkibini aniqlaydi. Mazkur tarkib 4 ta o'zaro bog'liq va ular bir-birini taqozo etuvchi blokni o'z ichiga oladi: maqsadli blok, mazmuniy blok, texnologik-jarayoniy bloki va natijaviy-korreksion blok ("2.2.1-rasm"ga qarang):

---

<sup>19</sup> Pavlenko O. O. The enhancement of a foreign language competence: free online resources, mobile apps, and other opportunities //CTE Workshop Proceedings, 2019. – T. 6. – P. 279-293.



2.2.1-rasm. Talabalarining xorijiy tildan ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasi pedagogik jarayon modeli

Aksariyat ingliz tili o'qituvchilari, ayniqsa, EFL (English as a Foreign Language – xorijiy til sifatida ingliz tili) kontekstida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, hali ham integrallashgan ko'nikmalar yondashuvini samarali tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatiladi. Shu bilan birga, ular endilikda talabalarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi oldida ham turibdilar. XXI asr ko'nikmalari, odatda, uch asosiy guruhga ajratiladi: o'qish va innovatsiya ko'nikmalari, savodxonlik ko'nikmalari va hayotiy ko'nikmalar. O'qish va innovatsiya ko'nikmalari zamonaviy mehnat muhitiga moslashish va uni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan intellektual jarayonlarni ifodalaydi. Hayotiy ko'nikmalar esa, har bir insonning kundalik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy va kasbiy sifatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur ish, asosan, o'qish va innovatsiya ko'nikmalariga qaratilgan bo'lib, ular odatda “4C” konsepsiyasi (*critical thinking – tanqidiy fikrlash, communication – muloqot, collaboration – hamkorlik, creativity – ijodkorlik*) sifatida mashhurdir.

1970-yillarning oxirigacha til o'qitishda, asosan, segregativ yondashuv ustun bo'lgan. Bunga grammatik tarjima metodi (***Grammar Translation Method – GTM***), audiolingval metod, strukturalizm yondashuvi, bevosita metod, total jismoniy javob (***Total Physical Response***) va tabiiy yondashuv kabi an'anaviy usullar sabab bo'lgan. 1970-yillarning oxiriga kelib, til o'qitishda alohida ko'nikmalarni o'rgatishga asoslangan yondashuv kommunikativ til o'qitish (***Communicative Language Teaching – CLT***) konsepsiyasi tomonidan shubha ostiga olindi. Widdowson til ko'nikmalarini integratsiyalash g'oyasining dastlabki targ'ibotchisi sifatida, til birliklari mustaqil “bo'laklar” ko'rinishida emas, balki nutq va aniq ijtimoiy kontekstlarda yuzaga chiqishini ta'kidlagan”<sup>20</sup>. Integratsiyalashgan ko'nikmalar yondashuvini amalga oshirish uchun o'qituvchilar, odatda, ikki xil metoddan foydalanadilar: mazmuniy o'qitish (***Content-Based Instruction – CBI***) va vazifaga asoslangan til o'qitish (***Task-Based Language Teaching – TBLT***). Ba'zan ular birgalikda qo'llanilganda ta'lim jarayonining xilma-xil bo'lishiga olib kirishi mumkin.

XXI asr ta'limida 4C kompetensiyalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. “*Partnership for 21st Century Learning*” (2011a) konsepsiyasida ta'kidlanishicha, o'quvchilar maktab davridayoq hayot va kasbiy faoliyatga tayyor bo'lishlari uchun 4 ta innovatsion ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Bular: kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va kreativlikdir. “*21st Century Learning Partnership*” ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrda muloqot kompetensiyasi raqamli, shaxslararo, yozma va og'zaki muloqotni o'z ichiga oladi va turli maqsadlar (masalan, ma'lumot berish, yo'naltirish, motivatsiya qilish va ishontirish) uchun turli shakllar, kontekstlar va xilma-xil muhitlarda (ko'p tilli va madaniyatli) turli media va texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi<sup>21</sup>.

Dissertatsiyaning “**Xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari va**

<sup>20</sup> Widdowson H.G. Teaching language as communication. – Oxford: Oxford University Press, 1978.

<sup>21</sup> Partnership for 21st Century Skills. (2011b). Communication and Collaboration. Retrieved from <http://www.P.21.org>

**natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy tilni o‘qitish kontekstida onlayn platformalardan samarali foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari va natijalari, ta’lim jarayonida talabalarda xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan. Hozirgi davrda kompyuter va internet ijtimoiy, ta’limiy hamda professional maqsadlarga erishishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Kompyuter va internet bilan samarali ishlash uchun talabalar va o‘qituvchilardan axborot hamda raqamli savodxonlikni egallash talab etiladi. Ijtimoiy tarmoq – foydalanuvchilar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va tashkil etishga xizmat qiluvchi platforma, onlayn xizmat yoki veb-sayt sifatida ta’riflanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar ta’lim jarayoniga 1995-yildan boshlab, AQSHda *Classmates.com* portali yaratilganidan buyon tobora ommalasha boshlagan. Xususan, 2003-2004-yillar ta’lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlar tatbiqi rivojlanishida muhim davr bo‘lib, *LinkedIn*, *MySpace* va *Facebook* platformalarining yaratilishi bilan belgilanadi.

Interaktiv onlayn texnologiyalar xorijiy tilni o‘qitish, ilmiy yozma nutqni rivojlantirish hamda ularni ta’limiy vositalar sifatida qo‘llash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda onlayn muloqotda qo‘llaniladigan texnologiyalar, asosan, ikki guruhga ajratiladi:

sinxron muloqot vositalari (real vaqt rejimida muloqot imkonini beruvchi vositalar: *Skype*, *Messenger*, *Discord*, *Viber*, *WhatsApp* va b.);

asinxron muloqot vositalari (muloqot jarayonini vaqt va makondan mustaqil tashkil etuvchi platformalar).

Ushbu bobning birinchi faslida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun maydonchalar sifatida Urganch davlat universitetidan 152 nafar, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 126 nafar, Alfraganus universitetidan 91 nafar, jami 369 respondent-talabalar jalb etildi. Umumiy natijalar tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish  $(68,67-56,33)\% = 12,34\%$  ga yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa, o‘z navbatida:  $\frac{68,67\%}{56,33\%} = 1,22$  barobar ortiqqligini anglatadi.

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, Tajriba guruhidagi o‘zlashtirish, Nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy tildan ko‘nikmalarini oshirishda onlayn platformalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish ta’lim samaradorlik darajasiga doir nazorat natijalarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Ushbu tadqiqot ishimizning samarali o‘rganilishi uchun tadqiqot bosqichlari (*diagnostik*, *dasturiy-ta’minot*, *ta’lim-tarbiyaviy*, *yakuniy-umumlashtiruvchi*), darajalari (*past*, *orta*, *yuqori*) va uning natijalari aniqlandi. Tadqiqot ishimizning yakuniy-umumlashtiruvchi bosqichida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlanish dinamikasi baholandi va natijalari umumlashtirildi. Istiqboldagi tarbiyaviy ishlarning yo‘nalishlari aniqlandi.

**Xorijiy tilni o‘qitish kontekstida onlayn platformalardan samarali foydalanish va talabalarning ingliz tili kompetensiyalarini rivojlantirishning tizimli tasniflash bosqichlari**

•	Diagnostik bosqich (2022-2023-yy.)	Talabalarning xorijiy tildan ko‘nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish <i>integrativ</i> yondashuv asosida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini belgilashni tizimli tasniflash, ma‘lumotlar to‘plash, suhbatlar o‘tkazish, darajalarini aniqlash, umumlashtirish va baholash.
•	Dasturiy-ta‘minot bosqichi (2023-2024- yy.)	Zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda talabalarning xorijiy tildan ko‘nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalarni foydalanish yo‘llarini aniqlashga doir nazariy ma‘lumotlar mazmuni aniqlanadi, dasturiy mahsulot tayyorlandi.
•	Ta‘lim-tarbiyaviy bosqich (2024-2025- yy.)	Tayyorlangan metodik tavsiya va qo‘llanmalar reja, dastur asosida talabalarda tajriba sinovdan o‘tkaziladi.
•	Yakuniy-umumlashtiruvchi bosqich (2024-2025- yy.)	Talabalarning xorijiy tildan ko‘nikmalarini rivojlantirishda onlayn platformalar orqali rivojlantirishning pedagogik va mexanizmlari dinamikasini baholash va natijalari umumlashtiriladi. Istiqboldagi tarbiyaviy ishlarning yo‘nalishlari aniqlanadi.

Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida badiiy filmlardan samarali foydalanish o‘qituvchidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Avvalo, mashg‘ulot vaqtini oldindan rejalashtirish, barcha talabalar uchun qulay bo‘lgan dars jadvalini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, filmning qaysi parchalari o‘quv jarayonida qo‘llanilishi va ularning leksikani o‘zlashtirishda qanchalik foydali bo‘lishini aniqlash lozim. Shuningdek, talabalar film asosidagi topshiriqlarni qanday bajarishi ham oldindan ko‘zda tutilishi muhimdir.

Badiiy filmlar madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida turli xalqlarning hayotiy voqeliklari va xulq-atvorini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayon talabalarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Zoom platformasi orqali videomateriallardan foydalanishning afzalliklari:

o‘quvchilarga filmni shaxsiy qurilmalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish imkoniyati beriladi, bu esa o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqotni uzluksiz davom ettirishga yordam beradi, hatto katta auditoriya ishtirokida ham;

tomosha jarayonida turli mashqlarni bajarish mumkin: masalan, kadrni to‘xtatib tahlil qilish yoki ovozsiz epizodlarni muhokama qilish;

“Ekranli ulashish” funksiyasi orqali materialni ko‘rsatishda talabalar faqat o‘qituvchi nutqiga e‘tibor qaratadi, bu esa topshiriqni samarali bajarishga ko‘maklashadi;

videomateriallar turli ish shakllarida qo‘llanilishi mumkin: individual, juftlikda, guruh va jamoaviy. “Sessiya zallari” funksiyasi orqali talabalarni kichik guruhlarga ajratish mumkin, “Kutilish zali” esa individual ishlashni tashkil etish imkonini beradi.

Badiiy filmlardan foydalanish leksikani o‘rgatishda tabiiy til muhitini yaratadi. Film tomosha qilish jarayoni o‘quvchilarni haqiqiy kommunikativ vaziyatlarga olib kiradi. Bundan tashqari, ular til egalarining nutqiy odatlari va ekstralingvistik omillarini vizual shaklda kuzatish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa so‘z boyligini o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

Mazkur metodikaning samaradorligi talabalarning ingliz tilida muloqot qiluvchi shaxslarning nutqiy xatti-harakatlarini nazariy anglashlari, tinglab tushunish va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari, rolli vaziyatlarda obrazlarni qayta tiklash va ulardan foydalanishga o‘rganishlari bilan izohlanadi. Natijada, ular til egalarining kommunikativ xulq-atvorini o‘z faoliyatida – akademik, kasbiy yoki shaxslararo muloqotda – muvaffaqiyatli qo‘llay olishlari mumkin bo‘ladi.

Talabalar bloglardan foydalanish orqali asl matnlar, videomateriallar va audioma‘lumotlarga murojaat qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, ular turli mavzular bo‘yicha keng qamrovli ma‘lumot taqdim etuvchi yangiliklar saytlaridan ham foydalanishlari mumkin. Masalan, CNN World News (<http://edition.cnn.com>), ABC News (<http://abcnews.go.com>), BBC World Service (<http://www.bbc.co.uk/worldservice>) va The Washington Times (<http://www.washtimes.com>).

ABC News (<http://abcnews.go.com>) o‘z materiallariga vizual hamda audio qo‘shimchalar bilan ta‘minot yaratadi. Shuningdek, taklif qilingan mavzular yuzasidan chat bo‘limlarida yozma muloqot olib borish imkoniyati mavjud. The New York Times (<http://nytimes.com>) esa umumiy havola daraxti shaklida tuzilgan bo‘lib, unda sarlavhalar va bo‘limlar soni nashriyot siyosatiga qarab o‘zgarib turadi, biroq barchasi inson faoliyatining asosiy sohalarini qamrab oladi.

CNN World News (<http://edition.cnn.com>) ko‘p tillarda ma‘lumot berib, maqolalarni ikki xil tasniflash – mavzu va yo‘nalish bo‘yicha tartibga soladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar audio va video materiallarni qo‘llashlari, muharririyat bilan muloqotga kirishishlari yoki maxsus forumlarda o‘zaro fikr almashishlari mumkin. Bu yerda elektron xabar taxtalari, suhbatxonalar va “Feedback” bo‘limi mavjud. BBC World Service (<http://www.bbc.co.uk/worldservice>) ham turli tillarda yangiliklarni tinglash va o‘qish imkonini beradi. Ayniqsa, “Learning English” (<http://www.bbc.co.uk/worldservice/learningenglish>) rejimi orqali ingliz tili darajasiga mos variantni tanlab, til o‘rganish jarayonini yengillashtirish mumkin. Maqolalarning mavzu va qit‘a bo‘yicha ikki xil tasniflanishi ham e‘tiborga molik.

Odatda mobil qurilmalar deganda planshet va smartfonlar tushuniladi, ammo zamonaviy qulay noutbuklardan ham samarali foydalanish mumkinligi e‘tibordan

chetda qolmasligi kerak. Talabalar bunday qurilmalar yordamida ish faoliyati bilan birga xorijiy tilni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mobil qurilmalar kundalik hayotda doimiy qo‘llanilishi sababli, onlayn platformalar an’anaviy darslarni qo‘llab-quvvatlovchi sifatli manbaga aylanishi mumkin. Ular to‘liq darajada auditoriya mashg‘ulotlarini va jonli muloqotni almashtirmasa-da, turli turdagi xotira va idrokni rag‘batlantiruvchi topshiriqlarni taklif etadi. Ayniqsa, lug‘at boyligini oshirish jarayonida bunday yondashuv samarali bo‘lib, ESL kabi kurslarda lug‘atni kengaytirish, undan keyin grammatika, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Platformalarning mobil telefonlar orqali foydalanish imkoniyati esa talabaga qisqa vaqt ichida tezkor o‘rganish sharoitini yaratadi.

Muhim jihatlardan yana biri — mobil talabalarning onlayn platformalardan foydalanishi faqat dars yoki uy vazifasi bilan cheklanmay, balki tashqi muhitda ham davom etishi kerak. Shuningdek, onlayn kurslarni tanlash asosiy ta’lim dasturi bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. O‘quv resurslarini talablarning o‘zgarib borayotgan ehtiyojlariga moslashtirish esa onlayn platformalarning xorijiy til o‘rganishda barqaror manbaga aylanishini ta’minlaydi. Bu jarayonda uy muhitini norasmiy o‘quv makoniga aylantirish, turli raqamli resurslardan simbiotik tarzda foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy masofa saqlash davrida xorijiy til o‘qituvchilari to‘liq ravishda onlayn platformalardan foydalanib, darslar o‘tkazgan, muhokamalar va so‘rovnomalar orqali bunday o‘qitishning samaradorligini baholaganlar. Shu bilan birga, talabalar ham *Coursera*, *Udemy* kabi ta’lim platformalari hamda *WhatsApp*, *Twitter*, *Facebook* kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zaro muloqotni kuchaytirgan. Biroq internetga cheklangan ulanish, onlayn darslar soni va sifatiga salbiy ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan<sup>22</sup>. Shunday qilib, onlayn platformalar ijtimoiy masofa sharoitida va mustaqil xorijiy til o‘rganishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta’lim jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi raqamli vositalar axborotni yetkazishning samarali usuli bo‘lishi mumkin, biroq ularni noto‘g‘ri tanlash yoki ortiqcha miqdorda qo‘llash talabalar diqqatini ko‘nikmalarni shakllantirishdan chalg‘itadi. Zotan, ingliz tili o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni oqilona integratsiya qilishda bir qator metodik tavsiyalarga amal qilish lozim.

O‘qitish usullarini integratsiyalash va ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash quyidagi mezonlarga javob berishi lozim: texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to‘liq integratsiya qilish zarur, ularni faqat qo‘shimcha vosita sifatida emas, balki o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qo‘llash muhimdir. Onlayn faoliyat dars maqsadlarini faqat to‘ldiribgina qolmasdan, unga yangi qiymat qo‘shishi, mavjud auditoriya imkoniyatlarini va boshqa vositalar yetishmovchiligini kompensatsiya qilishi lozim. Talabalarning faoliyat natijalari baholash tizimiga integratsiyalangan

---

<sup>22</sup> Gunawan, G., Suranti, N. M. Y., & Fathoroni, F. (2020). Variations of Models and Learning Platforms for Prospective Teachers During the COVID-19 Pandemic Period. *Indonesian Journal of Teacher Education*, 1(2), 61-70. Retrieved from <https://journal.publication-center.com/index.php/ijte/article/view/95>

bo'lishi ham muhim omillardan biridir. Shuningdek, raqamli vositalarni tanlashda quyidagi mezonlarga rioya etish tavsiya etiladi: kurs mazmuniga mos, samarali o'quv natijasini ta'minlay oladigan vositalarni tanlash; har bir texnologik vosita, internet resursi yoki ijtimoiy tarmoqning ta'lim jarayonidagi o'rnini farqlay bilish; mavjud resurslarni tahlil qilib, taklif etilayotgan vositalar o'quv tizimida samarali ishlashini oldindan aniqlash.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quv jarayonida vaqt sarfini kamaytirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Har qanday ta'lim tizimining asosiy axborot muhiti shaxsiy kompyuter va unga mos dasturiy ta'minotdan iborat bo'lib, internet tarmoqlarining keng tarqalishi tufayli talabalar global axborot resurslariga tezkor kirish imkoniga ega bo'ldilar. Masalan, elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va fayl saqlash tizimlari orqali talabalar ta'lim jarayonida zamonaviy ilmiy manbalardan foydalanishlari mumkin. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlash jarayonida zarur shart-sharoitni yaratadi. Shuningdek, elektron pochta, forum, chat, audio-video konferensiyalar kabi vositalar o'qituvchiga ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi.

Empirik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, onlayn platformalardan foydalanish qulayligi bo'yicha talabalar va o'qituvchilar fikrida farq mavjud. O'qituvchilar asosan internet ulanishidagi nosozliklar, barqarorlik muammolari, interaktivlikning yetishmasligi, guruhni nazorat qilishdagi qiyinchiliklar hamda ayrim platformalarda joy cheklanganligini ta'kidlagan bo'lsalar, talabalar esa onlayn ta'limning qulayligini yuqori baholaganlar. Chunki ular o'qish joyiga borish zaruriyati yo'qligi, vaqt va resurs tejashini muhim omil sifatida qayd etganlar. Shu bilan birga, respondentlarning yarmidan kamrog'i onlayn ta'lim xorijiy tilni sifatli o'qitish imkonini beradi, degan fikrni qo'llab-quvvatlagan. Bu holat, avvalo, o'qituvchilarning masofaviy ta'limga to'liq moslashmaganligi, internet ulanishidagi muammolar, talabalar tomonidan mustaqil va mas'uliyatli ta'lim olish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

## XULOSA

1. Onlayn muloqot vositalari xorijiy tillarni o'qitish jarayonining yangi shakl va uslublarini rivojlantirishda samarali pedagogik resurs hisoblanadi. Bir tomondan, onlayn muloqotdan foydalanish zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos keladi hamda axborot jamiyati rivojlanishining dolzarb shart-sharoitlariga javob beradi. Ikkinchi tomondan esa, xorijiy tilni o'rgatish jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muntazam muloqot zarur bo'lib, mazkur jarayonning samarali kechishi uchun turli xil kommunikativ vositalardan foydalanish talab etiladi.

2. Tadqiqotimizda qo'llanilgan suhbatlar natijalari sifat tahlili ko'rsatdiki, talabalar chat xonalari va bloglarda o'z fikrlarini bildirish, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan shaxsiy qarashlarini yozma ravishda ifodalashga intildilar. Ular o'rganilayotgan materialdagi qiyinchiliklarini ham bo'lishdilarki, bunda talabalar muloqotga ehtiyoj va o'zaro qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini anglab yetganliklari kuzatildi.

3. Onlayn texnologiyalar talabalarda til ko'nikmalarini rivojlantirishga ham samarali xizmat qiladi. *Yozish – elektron pochta va bloglar orqali yozma muloqot qilish; o'qish – veb-sayt, blog va elektron xabarlardan matn mazmunini tahlil qilish; tinglash – onlayn darslarda video/audio materiallarni tinglash, suhbatdosh nutqini tushunish; gapirish – videokonferensiya davomida faol kommunikatsiya qilish* kabilar shular jumlasidandir.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurati quyidagi bir necha omillar bilan izohlanadi: zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob berish, axborot jamiyatida samarali yashash uchun moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, ta'lim paradigmasining yangi sharoitlarga moslashuvini ta'minlash. Xususan, elektron pochta, forum, blog, ijtimoiy tarmoqlar kabi asinxron vositalar hamda *zoom, google meet* va boshqa platformalardagi sinxron muloqot vositalari yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish mumkinki, bu esa, ta'limning barqarorligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Onlayn kommunikatsiya vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish xorijiy til o'rgatishda yozish, o'qish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradi, talabalarni keng auditoriya oldida mas'uliyatli faoliyat yuritishga o'rgatadi va ularni global ijtimoiy-madaniy makonga faol integratsiyalashuviga yordam beradi.

6. Texnologiyadagi yuksak taraqqiyot xorijiy til o'rganish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini bermoqda. Tahlillarimizdan ayon bo'ladiki, zamonaviy xorijiy til ta'limi besh asosiy texnologiyaga tayangan holda mukammallashmoqda. Bular: multimediya asosidagi ta'lim, matnni nutqqa aylantirish (*text-to-speech*), mobil ta'lim, ijtimoiylashtirish texnologiyalari va raqamli o'yin asosidagi ta'lim. Bu esa, ta'lim, ayniqsa, oliy ta'lim xorijiy til o'qituvchilaridan o'qitish jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rinli va unumli tatbiq etishda uquvli, bilimli, tajribali hamda ziyalikni talab etadi.

7. Onlayn va oflayn ta'limning integratsiyasi, ya'ni talabalarning xorijiy til ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun onlayn platformalardagi mashg'ulotlar an'anaviy auditoriya darslari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bunda nazariy bilimlar oflayn tarzda mustahkamlanib, amaliy mashqlar onlayn muhitda interaktiv shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

8. Tajriba-sinov ishlariga Urganch davlat universitetidan 152 nafar, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 126 nafar, Alfraganus universitetidan 91 nafar, jami 369 respondent-talabalari jalb etildi. Tajriba guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhlariga nisbatan 1,22 foizga ortganligini ko'rsatdiki, bunda olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini kuzatish mumkin. Demak, integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy tildan ko'nikmalarini oshirishda onlayn platformalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish borasidagi izlanishlarimiz natijasida ishlab chiqqan metodikamizni oliy ta'limda xorijiy til o'rgatish jarayoniga tatbiq etish o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## **Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1. Xorijiy tillarni o'qitishda google classroom, moodle, coursera, duolingo kabi platformalarning samaradorligini muntazam ilmiy tajribalar asosida tahlil qilish lozim. Olingan natijalar esa, yangi metodik qo'llanmalar, dasturlar va o'quv kurslarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

2. O'quv jarayonida ko'pmodal (multimodal) o'qitish usullarini, matn, audio, video va interaktiv topshiriqlarni uyg'unlashtirish talabalarni turli idrok kanallari orqali xorijiy tilni o'zlashtirishga jalb etadi. Tabiiyki, bu tilni o'rganishda eshitish, ko'rish va yozish ko'nikmalarining kompleks rivojlanishiga yordam beradi.

3. Talabalarga individual til bilish darajasi va ehtiyojlariga mos ravishda kurs hamda resurslarni tanlash imkoniyati yaratilishi muhim. Mazkur ta'lim muhitida o'qituvchi talabani til o'zlashtirish sur'ati, xatolarni tahlil qilish va shaxsiy ta'lim strategiyasini belgilashda yo'naltiruvchi rol egallashi zarur.

4. Onlayn platformalarda reyting tizimlari, gamifikatsiya elementlari (ball, sertifikat, badge kabi) qo'llanilishi talabalarni xorijiy tilni egallash jarayonida faolroq ishtirok etishga undaydi. Shuningdek, talabalarda o'z-o'zini baholash va autentik topshiriqlar orqali mustaqil o'qish kompetensiyalari shakllantiriladi.

5. Xorijiy tilni o'qitishda ijtimoiy fanlar, agrar soha, iqtisodiyot, diplomatiya, IT va boshqa sohalarga oid matn hamda topshiriqlardan foydalanish talabalar uchun mazmuniy jihatdan izchillik hamda uzviylikni ta'minlaydi. Bu jarayon nafaqat lingvistik, balki madaniy va kasbiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**САМАНДАРОВА ГУЛСАРА ИСМАТИЛЛОЕВНА**

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ ДЛЯ  
ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ВЛАДЕНИЯ ИНОСТРАННЫМИ ЯЗЫКАМИ  
У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**БУХАРА – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована под номером B2025.4.PhD/Ped11503 в Высшей Аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.**

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета

**Научный руководитель:**

**Ботирова Шахло Исамиддиновна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Хикматова Мукаддас Нуруллаевна**  
кандидат филологических наук, профессор

**Фозилова Махина Адашевна**  
доктор философии (PhD) по  
педагогическим наукам

**Ведущая организация:**

**Национальный педагогический университет  
Узбекистана**

Защита диссертации состоится « 2 » июня 2026 г. в « 9:00 » часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 по присуждению ученой степени при БухГУ (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел: +99865221-25-87).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № д/905). (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел: +99865221-25-87).

Автореферат диссертации разослан «19» мая 2026 года.

(Протокол реестра № 19 от 19 мая 2026 года)



**Н.Б.Атабоев**

Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор филологических наук (DSc),  
профессор

**Я.Б.Рузиев**

Учёный секретарь Научного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
филологических наук (DSc), доцент

**Ш.Ш.Олимов**

Председателя научного семинара при  
научном совете по присуждению  
учёных степеней, доктор  
педагогических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях современной глобализации овладение иностранным языком на высоком уровне рассматривается как одно из приоритетных направлений системы высшего образования. В мировой образовательной практике широко применяется интегративный подход, основанный на современных информационно-коммуникационных технологиях, направленный на формирование коммуникативной компетенции студентов в области иностранного языка. В частности, онлайн-образовательные платформы обеспечивают создание интерактивной образовательной среды, развитие языковых навыков с использованием мультимедийных средств, а также реализацию индивидуализированного подхода к обучению. В связи с этим совершенствование методики эффективного использования онлайн-платформ в преподавании иностранных языков приобретает особую актуальность не только на национальном, но и на глобальном уровне. Методические решения, разработанные на основе интегративного подхода, играют значимую роль в обеспечении международного обмена педагогическим опытом, внедрении инновационных образовательных технологий и формировании у студентов навыков самостоятельной учебной деятельности.

В условиях современной глобализации углублённое овладение иностранным языком рассматривается как одна из ключевых задач системы высшего образования. Международный рынок труда и академическое сотрудничество предъявляют к обучающимся требования по сформированности базовых языковых компетенций — аудирования, чтения, письма и устной речи. В этой связи эффективное использование онлайн-платформ открывает возможности для повышения качества иноязычного образования, а также для придания образовательному процессу гибкости и интерактивности. Результаты научных исследований, проводимых в зарубежных высших учебных заведениях, свидетельствуют о том, что цифровые технологии, в частности онлайн-образовательные платформы, способствуют активизации самостоятельной учебной деятельности студентов, повышению их учебной мотивации и обеспечению индивидуализации процесса изучения языка. Вместе с тем, для повышения эффективности данного процесса актуализируется необходимость углублённого изучения и научного обоснования соответствующих методических подходов. Таким образом, анализ научно-педагогических аспектов использования онлайн-платформ в формировании базовых иноязычных компетенций студентов обладает не только теоретической, но и практической значимостью, занимая важное место в системе современного образования.

В системе образования нашей страны углублённое изучение иностранных языков определено как одно из приоритетных направлений государственной политики. В частности, в президентских решениях и

концептуальных программах особое внимание уделяется широкому внедрению инновационных технологий в процесс обучения иностранным языкам, развитию коммуникативной компетенции обучающихся, а также ускорению интеграции в международное образовательное пространство. Кроме того, как подчеркнул Президент Ш. Мирзиёев, «ребёнок, окончивший школу с владением профессией и иностранным языком, является большим достижением нашего общества; их отсутствие — проблема». С этой точки зрения эффективное использование онлайн-образовательных платформ занимает важное место в развитии основных языковых навыков — аудирования, чтения, письма и говорения. Данные платформы обеспечивают индивидуализацию образовательного процесса, повышают уровень интерактивности, способствуют формированию у обучающихся навыков самостоятельной работы, а также позволяют оценивать их знания и умения в соответствии с международными стандартами. Таким образом, исследование научно-теоретических и практических основ использования онлайн-платформ в развитии базовых языковых компетенций студентов представляет собой одну из актуальных задач системы высшего образования Республики Узбекистан.

